

Ma'nodosh so'z : O'rtoq.

IV. Darsni yakunlash va baholash. (4 daqiqa)

- She'r nima haqida ekan?
- She'rdan qanday xulosa chiqardingiz?
- Fikrni davom ettiring: Agar do'sting bo'lmasa,...

V. Uyga vazifa. (2 daqiqa) She'rni yod oling. Tasavvuringizdagi "Do'stlik bog'i"ning tasvirini chizing.

2-Mavzu: Do'stlikning qudrati

Darsning maqsadi:

"Do'stlikning xosiyati" rivoyati bilan tanishtirish;
Do'stning inson hayotdagi o'rnini tushuntirish;
Bog'lanishli nutqini o'stirish, fikrlash qobiliyatini shakllantirish.

Tayanch so'zlar: donishmand, Ibn Sino, do'stlik

Didaktik materiallar. mavzuga mos rasmlar.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkil qilish.

Faollashtiruvchi mashq: So'z qo'yинг va maqolni o'qing.

_____ ***bilan obod uying.***

II. O'tilganlarni takrorlash. (10 daqiqa)

She'r yoddan so'raladi. Tasavvuridagi "Do'stlik bog'i"ning rasmi ko'rildi.

III. Darsning asosiy qismi. (27 daqiqa)

Amaliy topshiriq: "**Mendan so'ra**" mashqi.

Partadoshingizdan quyidagi savolga javob oling.

Do'stingizdagi qaysi xislati sizga yoqadi?

Muhokama uchun savollar.

1. Partadoshingiz qanday javob berdi?
 2. Siz-chii?
 3. Kimning javobi partadoshnikiga o'xshash ?
- Mavzuni tushuntirish.**

Darslikda berilgan "Ibrat bola"ning gaplari o'qitiladi va muhokama qilinadi.

Do'stlik qudrati hamma narsadan ustun. Kimki kelajagi porloq va istiqbolli bo'lismi istasa, do'st va o'rtoq orttirishi, ularni sevib, ardoqlashi kerak. Do'sti ko'p insonlar baxtli va saodatli bo'ladilar. Do'stlik, o'rtoqlik insonlar uchun eng yaxshi fazilatdir.

O'quvchilarga quyidagi savollar berish tavsiya qilinadi.

1. Do'stlikning qudrati deganda nimani tushunasiz?
 2. Nima uchun do'stlik qudrati hamma narsadan ustun?
 3. Ayting-chi, insonning do'stlari ko'p bo'lishi uchun nima qilishi kerak?
- Matn bilan ishslash.**

"Do'stlikning xosiyati" rivoyati navbatma-navbat o'qitiladi. Rivoyat yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Rivoyatda qaysi alloma tilga olingan?
2. Otasi unga qanday nasihat qildi?
3. Mo'ysafid hakimga nima deb maslahat berdi?
4. Nima deb o'ylaysiz, nima uchun rivoyat "Do'stlikning xosiyati" deb nomlangan?
5. "Do'sti ko'p odam doimo sog'lom bo'ladi?" deganda nimani tushundingiz?
6. Odamning do'sti ko'p bo'lishi uchun nima qilishi kerak deb o'ylaysiz?
7. Rivoyatdan qanday xulosa chiqardingiz?

Rivoyat matnidagi notanish so'zlar ustida lug'at ishi o'tkaziladi.

hakim – tabib, shifokor.

kifoya – yetarli.

mo'ysafid – keksa, chol.

odilon – adolatli, haqqoniy.

"Tanlab o'qish" mashqi.


Ibn Sino, ota, mo'ysafidning gaplarini rivoyatdan topib o'qiladi.

Mashq daftari bilan ishslash.

Mashq daftaridagi topshiriqlar bajariladi.

“Bog’lang” mashqi.

Maqolning davomi ikkinchi ustundan topiladi va moslashtiriladi.



“So'zdan so'z” mashqi.

“Do’st” so‘zidagi harflardan boshlanadigan mavzuga oid so‘zlar yoziladi.

Namuna: dugona,o'rtoq, sirdosh, tayanch

Tez aytish musobaqasi o'tkaziladi.

IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)

Rivoyat nima haqida ekan?

Fikrni davom ettiring: “Do’sting ko‘p bo‘lishi uchun....”

V. Uyga vazifa. (2 daqiqa)

Rivoyatni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering. Siz yana “Do’stlik” haqida qanday asarlar o‘qigansiz? Ularning mazmuni bilan o'rtoqlashing.